Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
CHIGITLI PAXTA TARKIBIDAN YOT ARALASHMALARNI AJRATISH UCHUN QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	825
Bozorov Dilmurod Bahromjon o'g'li, Jakparov Oltinboy Rustamjon o'g'li	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND GREEN INITIATIVES: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	830
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
SOLIQ INSTRUMENTLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	834
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....	847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA RESURS EHTIYOJLARI.....	852
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	858
Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KREDITLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	864
Tajimuratova Nelufar Vays qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	
BAHOLANGAN RISKLARGA NISBATAN AUDITORNING HATTI-HARAKATLARI	876
A.Z.Avlokulov	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH	880
Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	885
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
FIZIK XAVFSIZLIK NAZORATI VA UNI ISPY DASTURI ASOSIDA MONITORING QILISH.....	892
Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI	902
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI	910
Ametova Biybisuliu Xamidullaevna, Ametov Quanishbay Xamidullaevich	
ЛЬГОТЫ ПО ПРЯМЫМ И КОСВЕННЫМ НАЛОГАМ И ИХ ГАРМОНИЧНОЕ СООТНОШЕНИЕ	915
Фаттоев Олимжон Гайрат ўғли	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	920
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	925
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	
IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI TAHLILI.....	929
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	937
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
FISKAL MEKANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich	
ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	955
Воронин Сергей Анатольевич, Ахмедова Фазилат Жураевна	
IMPROVING EMPLOYEE MOTIVATION AND DEVELOPING AN EFFECTIVE INCENTIVE SYSTEM IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.....	962
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ugli, Ashurova Jasmina Jo'ra kizi	



O'ZBEKISTONDA KO'P POG'ONALI PENSIYA TIZIMIGA O'TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA MOLIVAVIY BARQARORLIK MODELLARI	966
Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	971
Astanayev Kulmakhammat Sanayevich	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA BOSQICHLARI	977
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA JUST-IN-TIME TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ...	981
Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li	
KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING AUDITINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI	986
Djumayeva Guzal Axtamovna, Sag'dullayev Abdullo Valijon o'g'li	
XOM ASHYO VA MATERIALLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	990
Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Rafikova Aziza Xurshid qizi	
AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI (Navoiy viloyati misolida)	994
O'roqov Mamurali Odil o'g'li	
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO'LAJAK MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1000
Ibragimov Suxrob Latifovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	1004
Ismailova Nilufar Sabitdjanovna	
СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ФОРМОВКИ ТРУБ СРЕДНЕГО И БОЛЬШОГО ДИАМЕТРА	1010
Юсупов А.А., Райимкулов С.Х.	
TURIZM XIZMATLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDAGI RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH.....	1015
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li	
DAVLAT GRANTLARI TANLOVLARINI SHAKLLANTIRISHDA KO'P BOSQICHLI IJTIMOYIY MASLAHATLASHUV VA RAQAMLI JAMOATCHILIK ISHTIROKI MEXANIZMINING AHAMIYATI.....	1020
Xasanov Jahongir Botir o'g'li	
PAHTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH.....	1025
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1030
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ»	1036
Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	1040
Гаффоров Шухрат Насриевич	
BANKLARDA ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	1047
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1054
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	



O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Normamatova Sitara Nozim qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya” fakulteti talabasi.

sitoranormamatova6@gmail.com

Raxmanov Mexridin Sindarovich

“Ekonometrika” kafedrası professori, DSc.

ANNOTATSIIYA. Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholashning mavjud ekonometrik modellarini tahlil qilish va yangi, zamonaviy gibridd model — CreditRisk-UZni ishlab chiqish natijalari keltirilgan. Tadqiqot 2015–2023-yillar davomida 18 ta tijorat bankidan to‘plangan 14 560 ta kredit shartnomasi ma‘lumotlariga asoslanadi. Logistik regressiya, probit modeli, qaror daraxti, sun‘iy neyron tarmoqlar (ANN), SVM va tasodifiy o‘rmon (Random Forest) modellari qiyosiy tarzda tahlil qilingan. Taklif etilayotgan CreditRisk-UZ gibridd modeli AUC-ROC ko‘rsatkichi bo‘yicha 0,912 natijaga erishib, mavjud modellarga nisbatan 4–13 foiz yuqori aniqlikni ta‘minlaydi. Makroiqtisodiy o‘zgaruvchilarni modelga kiritish kreditlarning qaytmaslik ehtimolini prognozlash sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: kredit riski, ekonometrik modellashtirish, logistik regressiya, neyron tarmoqlar, tijorat banklari, O‘zbekiston, kredit baholash, CreditRisk-UZ, random forest, skoring tizimi.

ABSTRACT. The article presents the results of analyzing existing econometric models for credit risk assessment in commercial banks of Uzbekistan and developing a new modern hybrid model called CreditRisk-UZ. The study is based on data from 14,560 loan agreements collected from 18 commercial banks during 2015–2023. Comparative analysis was conducted using logistic regression, probit model, decision tree, artificial neural networks (ANN), support vector machines (SVM), and Random Forest models. The proposed CreditRisk-UZ hybrid model achieved an AUC-ROC score of 0.912, providing 4–13% higher accuracy compared to existing models. The inclusion of macroeconomic variables significantly improves the quality of predicting loan default probabilities.

Keywords: credit risk, econometric modeling, logistic regression, neural networks, commercial banks, Uzbekistan, credit assessment, CreditRisk-UZ, random forest, scoring system.

АННОТАЦИЯ. В статье представлены результаты анализа существующих эконометрических моделей оценки кредитных рисков в коммерческих банках Узбекистана, а также разработки новой современной гибридной модели CreditRisk-UZ. Исследование основано на данных 14 560 кредитных договоров, собранных из 18 коммерческих банков за 2015–2023 годы. Проведен сравнительный анализ моделей логистической регрессии, пробит-модели, дерева решений, искусственных нейронных сетей (ANN), SVM и Random Forest. Предлагаемая гибридная модель CreditRisk-UZ достигла показателя AUC-ROC на уровне 0,912, обеспечив точность на 4–13 % выше по сравнению с существующими моделями. Включение макроэкономических переменных в модель значительно повышает качество прогнозирования вероятности невозврата кредитов.

Ключевые слова: кредитный риск, эконометрическое моделирование, логистическая регрессия, нейронные сети, коммерческие банки, Узбекистан, кредитная оценка, CreditRisk-UZ, random forest, скоринговая система.

KIRISH

Kredit riski tijorat banklari faoliyatidagi eng muhim va dolzarb muammolardan biri bo‘lib, iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy tizim samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Jahon moliyaviy inqirozlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kredit risklarini yetarli darajada baholamaslik moliyaviy tizim barqarorligiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida bank sektori ham tubdan o‘zgarishlar bosqichidan o‘tmoqda [1]. Tijorat banklari soni va kredit portfeli hajmi tez sur‘atlarda o‘sib, 2019–2023-yillarda jami kredit portfeli 169,4 %ga oshdi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar (non-performing loans – NPL) ulushi 2020-yildagi 6,9 %dan 2023-yildagi 4,2 %gacha kamaygan bo‘lsa-da,



mutlaq miqdorda o'lishda davom etmoqda.

Basel III standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 9) kredit tashkilotlariga kreditlar bo'yicha kutilayotgan zarar (Expected Credit Loss – ECL) modelini joriy etishni talab qiladi [2]. Bu holat O'zbekiston tijorat banklarini mahalliy iqtisodiy sharoitga moslashtirilgan zamonaviy kredit baholash tizimlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, G'arb mamlakatlarida keng qo'llaniladigan Z-ball modeli (Altman, 1968) va Merton modeli (1974) O'zbekiston sharoitida yetarli bashorat kuchiga ega emas, chunki ular mahalliy makroiqtisodiy omillar va qarz oluvchilarning xulq-atvor xususiyatlarini hisobga olmaydi [3].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi: O'zbekiston tijorat banklari uchun kredit risklarini baholashning ekonometrik modellarini qiyosiy tahlil qilish; mahalliy sharoitga moslashtirilgan gibril CreditRisk-UZ modelini ishlab chiqish; modelning bashorat qilish aniqligini empirik tarzda tekshirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit riskini baholash sohasidagi ilk fundamental ishlar XX asrning 60–70-yillariga to'g'ri keladi. Altman (1968) tomonidan ishlab chiqilgan Z-ball modeli diskriminant tahlil asosida qurilgan bo'lib, kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlaridan foydalangan holda bankrot ehtimolini aniqlashga imkon beradi. Ushbu model hozirgi kunda ham keng qo'llaniladi, ammo rivojlanayotgan bozorlar uchun moslashtirilgan shaklda foydalanish tavsiya etiladi.

Merton (1974) opsiyonga asoslangan modelida kompaniyaning qarz to'lamalik ehtimoli fond bozori ma'lumotlari va kompaniya aktivlari volatilligidan kelib chiqib hisoblanadi. Bu yondashuv nazariy jihatdan puxta bo'lsa-da, amaliyotda fond bozori kam rivojlangan mamlakatlarda qo'llash imkoniyati cheklangan. Hosmer va Lemeshow (2000) tomonidan yoritilgan logistik regressiya modeli kredit skoring tizimlarida keng qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri hisoblanadi [5]. Bu model ikkilik natijalarni (defolt/defolt emas) bashorat qilishda samarali va talqin qilish oson bo'lganligi tufayli amaliyotchilar orasida mashhur hisoblanadi.

Mashina o'rganish usullarining rivojlanishi kredit riskini baholashda yangi imkoniyatlar ochdi. Vapnik (1995) tomonidan taklif etilgan SVM algoritmi yuqori o'lchamli ma'lumotlar bilan ishlashda samarali [6]. Breiman (2001)ning Random Forest algoritmi esa ensembl o'rganish asosida yuqori aniqlikni ta'minlashi bilan ajralib turadi. Engle (1982) tomonidan ishlab chiqilgan ARCH/GARCH modellari kredit portfeli riskining vaqt bo'yicha o'zgaruvchanligini modellashtirish uchun qo'llaniladi. Bu yondashuv makroiqtisodiy sikllarning kredit defolt ehtimollariga ta'sirini o'rganishda ayniqsa muhim.

O'zbekiston Markaziy bankining 2022-yildagi uslubiy ko'rsatmalariga ko'ra, tijorat banklari kredit riskini baholashda beshta asosiy mezonidan foydalanishi lozim [7]: qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, kredit tarixi, garov ta'minoti, kredit maqsadi va sanoat sohasidagi tahlil. Ammo amaliyotda bu mezonlarning miqdoriy o'lchovi va og'irliklari bank tomonidan mustaqil belgilanadi, bu esa subyektivlik xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Hand va Henley (1997) iste'molchi kreditlash sohasidagi statistik tasniflash usullarini keng tahlil qilib, logistik regressiya rivojlanayotgan bozorlar uchun ham asosiy asbob sifatida qolishini ta'kidlaydi [8]. Wilson (1997a, 1997b) esa CreditMetrics doirasida kredit portfeli risklarini modellashtirish metodologiyasini taklif etgan. Ammo MDH mamlakatlari, xususan O'zbekiston uchun moslashtirilgan gibril modellar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kredit registri hamda 18 ta tijorat bankining ichki ma'lumotlar bazasidan olindi. Kuzatuv davri: 2015-yil yanvar – 2023-yil dekabr (9 yil). Jami 14 560 ta kredit shartnomasi tahlil qilindi, shulardan 2 134 tasi (14,7 %) muddati o'tgan va defolt holatiga tushgan kreditlardir.

Tanlanmaning tarkibi: yuridik shaxslar – 8 420 ta (57,8 %), jismoniy shaxslar – 6 140 ta (42,2 %); kredit turlari: ipoteka – 28 %, biznes krediti – 45 %, iste'mol krediti – 27 %. Geografik qamrov: Toshkent shahri – 38 %, viloyat markazlari – 42 %, tuman va qishloq hududlari – 20 %.

Quyidagi 1-jadvalda tadqiqotda foydalanilgan asosiy o'zgaruvchilar, ularning ta'riflari va model uchun kutilayotgan ta'sir yo'nalishlari keltirilgan(1-jadval).

1-jadval. Model o'zgaruvchilari va ta'riflari.

O'zgaruvchi	Belgisi	Ta'rif	Kutilayotgan ta'sir
Qarz/Daromad nisbati	DTI	Oylik qarz to'lovlari / Oylik daromad	Musbat (+)
Kredit tarixi bali	CS	Kredit byurosi ma'lumoti (0-850)	Manfiy (-)
Garov qiymati nisbati	LTV	Kredit summasi / Garov bozor qiymati	Musbat (+)
Ish tajribasi (yil)	EXP	Joriy ish joyidagi ish staji	Manfiy (-)
Kredit muddati (oy)	TEN	Kredit to'lov muddati	Musbat (+)
Foiz stavkasi (%)	IR	Yillik foiz stavkasi	Musbat (+)
Sanoat turi	IND	Qarz oluvchi soha (dummy)	Kontekstga bog'liq
YaIM o'sish sur'ati (%)	GDP	Choraklik milliy YaIM o'sishi	Manfiy (-)

Barcha miqdoriy o'zgaruvchilar to'liq kredit muddati davomidagi o'rtacha qiymatlar asosida hisoblanadi. Ekonometrik modellash yondashuvi.

Tadqiqotda quyidagi modellar qiyosiy tarzda tahlil qilindi:

- (1) Ikkilik logistik regressiya (Binary Logistic Regression);
- (2) Probit modeli;
- (3) Qaror daraxti (Decision Tree, CART algoritmi);
- (4) Sun'iy neyron tarmoqlar (Multilayer Perceptron, 3 qatlam: 9-18-1);
- (5) SVM (RBF yadro funksiyasi);
- (6) Tasodifiy o'rmon (Random Forest, 500 daraxt).

Taklif etilayotgan CreditRisk-UZ gibrid modeli logistik regressiya va Random Forest algoritmlarining og'irlangan ensemble (ansambl) kombinatsiyasiga asoslanadi.

Ikkilik logistik regressiya modeli quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$P(\text{Default}=1|X) = 1 / (1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 \text{DTI} + \beta_2 \text{CS} + \beta_3 \text{LTV} + \beta_4 \text{EXP} + \beta_5 \text{TEN} + \beta_6 \text{IR} + \beta_7 \text{GDP} + \epsilon)})$$

Bu yerda: P – defolt ehtimoli; e – Eylar soni (2,718); $\beta_0 \dots \beta_7$ – model koeffitsiyentlari; ϵ – tasodifiy xato haddi.

Modellar aniqligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholandi: AUC-ROC egri chizig'i osti maydoni (asosiy mezon); confusion matrix asosida aniqlik (accuracy), sezgirlik (sensitivity/recall), spetsifiklik (specificity); F1-ball (precision va recall garmonik o'rtachasi); Hosmer-Lemeshow yaxshi moslik testi. Ma'lumotlar 70:30 nisbatda o'quv va test to'plamlariga bo'lingan, k=10 kross-validatsiya qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi 2-jadvalda O'zbekiston tijorat banklari kredit portfelining 2019–2023-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan:

2-jadval. O'zbekiston tijorat banklari kredit portfeli ko'rsatkichlari (2019–2023).

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Jami kredit portfeli (trln so'm)	124,3	148,7	198,5	261,2	334,8
Muammoli kreditlar ulushi (%)	5,8	6,9	5,4	4,7	4,2
Kredit o'sish sur'ati (%)	18,2	19,6	33,5	31,5	28,2
Kapital yetarliligi koef. (%)	18,4	17,9	17,2	16,8	16,5
Foiz daromadi (trln so'm)	8,6	10,9	14,7	19,3	24,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023-yillik hisobot.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2019–2023-yillar davomida jami kredit portfeli 124,3 trln so'mdan 334,8 trln so'mga oshgan (169,4 % o'sish). Muammoli kreditlar ulushi 2020-yildagi eng yuqori ko'rsatkichdan (6,9 %) 2023-yilga kelib 4,2 %gacha pasaygan bo'lsa-da, bu hali ham qabul qilinadigan chegaradan (3



%) yuqori. Kapital yetarliligi koeffitsiyenti 18,4 %dan 16,5 %gacha pasayib, Bazel III talablariga (8 %) mos bo'lsa-da, sof pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

3-jadvalda logistik regressiya modeli koeffitsiyentlari, standart xatolar va statistik ahamiyatlilik ko'rsatkichlari keltirilgan:

3-jadval. Logistik regressiya koeffitsiyentlari (n=10 192, o'quv to'plami)

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	Standart xato	Wald chi ²	p-qiyamat
Konstanta (β_0)	-3,214	0,287	125,3	<0,001***
DTI	2,847	0,312	83,4	<0,001***
CS	-0,018	0,002	94,2	<0,001***
LTV	1,563	0,198	62,3	<0,001***
EXP	-0,124	0,031	16,1	<0,001***
TEN	0,043	0,011	15,3	<0,001***
IR	0,215	0,048	20,1	<0,001***
GDP	-0,387	0,094	16,9	<0,001***

Izoh: *** p<0,001 darajasida statistik ahamiyatli. Psevdo-R² (Nagelkerke) = 0,421. -2LL = 8 734,6.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, barcha kiritilgan o'zgaruvchilar p<0,001 darajasida statistik jihatdan ahamiyatlidir. DTI koeffitsiyenti ($\beta=2,847$) eng katta ijobiy ta'sirga ega: qarzdaromad nisbatining 10 foizlik o'sishi defolt ehtimolini taxminan 33,4 foizga oshiradi. Kredit tarixi bali (CS) manfiy belgi bilan ($\beta=-0,018$) kredit sifatini yaxshilashda muhim omil ekanini tasdiqlaydi. YAIM o'sish sur'ati (GDP, $\beta=-0,387$) iqtisodiy ko'tarilish davrida kreditlar to'lanmaslik ehtimoli pasayishini ko'rsatadi.

Barcha tadqiq etilgan modellarning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish natijalari 4-jadvalda keltirilgan:

4-jadval. Ekonometrik modellarni qiyosiy tahlil (test to'plami, n=4 368).

Model	AUC-ROC	Aniqlik (%)	Sezgirlik (%)	Spetsifiklik (%)	F1-ball
Logistik regressiya	0,782	74,3	68,5	79,1	0,714
Probit model	0,791	75,8	70,2	80,4	0,728
Qaror daraxti	0,803	77,4	72,9	81,6	0,742
Sun'iy neyron tarmoq	0,851	81,2	78,3	84,1	0,798
SVM	0,837	79,6	75,8	83,2	0,771
Tasodifiy o'rmon	0,874	83,7	80,9	86,4	0,819
Gibrid CreditRisk-UZ (taklif)	0,912	87,4	85,6	89,2	0,861

Barcha ko'rsatkichlar (k=10) kross-validatsiya asosida o'rtachalashtirilgan. CreditRisk-UZ modeli uchun barcha ko'rsatkichlar boshqa modellardan statistik jihatdan ahamiyatli tarzda yuqori ((p<0,05)).

Taklif etilayotgan CreditRisk-UZ gibrid modeli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori natijani ko'rsatmoqda. Xususan, AUC-ROC qiymati 0,912 bo'lib, klassik logistik regressiyaga (0,782) nisbatan 16,6 foizga yuqori. Aniqlik ko'rsatkichi 87,4 %ni tashkil etib, sohada qabul qilingan 80 % chegarasidan sezilarli darajada yuqori.

Taklif etilayotgan CreditRisk-UZ modeli uchta ssenariyli stress-test sinovidan o'tkazildi: (1) Bazaviy ssenariy — joriy iqtisodiy vaziyat; (2) Salbiy ssenariy — YAIM 3 % pasayishi, inflyatsiya 5 foizga oshishi, valyuta kursi 15 % zaiflashishi; (3) O'ta salbiy ssenariy — YAIM 7 % pasayishi, inflyatsiya 10 foizga oshishi, valyuta kursi 30 % zaiflashishi.

Natijalar ko'rsatadiki, salbiy ssenariyda NPL ulushi 4,2 %dan 7,8 %gacha, o'ta salbiy ssenariyda esa 12,3 %gacha oshishi mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqola O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholashning ekonometrik modellarini takomillashtirish bo'yicha bir qancha muhim natijalarni berdi. Birinchidan, an'anaviy modellar (logistik regressiya, probit) O'zbekiston sharoitida qoniqarli natijalar bersa-da, zamonaviy mashina o'rganish usullari (Random Forest, neyron tarmoqlar) sezilarli darajada yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Taklif etilayotgan CreditRisk-UZ gibrid modeli AUC-ROC = 0,912 va aniqlik 87,4 % ko'rsatkichlari bilan barcha taqqoslanayotgan modellardan ustun chiqdi. Bu natija O'zbekiston kredit bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan gibrid yondashuv samarali ekanligini isbotlaydi.

Makroiqtisodiy o'zgaruvchilarni (YAIM o'sish sur'ati, inflyatsiya, valyuta kursi) modelga kiritish kreditlar to'lanmaslik ehtimolini bashorat qilish sifatini 8–12 % oshiradi. Bu IFRS 9 standartlarining PD, LGD va EAD komponentlarini to'liq modellashtirish uchun zarur shartdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. *Banklar faoliyatining yillik hisoboti*. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
2. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS), 2017. *Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms*. — Bank for International Settlements.
3. Altman E.I., 1968. *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy*. *Journal of Finance*, 23(4), 589–609.
4. Merton R.C., 1974. *On the Pricing of Corporate Debt: The Risk Structure of Interest Rates*. *Journal of Finance*, 29(2), 449–470.
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4581969>
6. Hosmer D.W., Lemeshow S., 2000. *Applied Logistic Regression* (2nd ed.). — New York: Wiley.
7. Engle R.F., 1982. *Autoregressive Conditional Heteroscedasticity with Estimates of the Variance of United Kingdom Inflation*. *Econometrica*, 50(4), 987–1007.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2022. *Tijorat banklarida kredit portfeli sifatini baholash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar*. — Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2022. *Tijorat banklarida kredit portfeli sifatini baholash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar*. — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. *Banklar faoliyatining yillik hisoboti*. — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100